

# TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY BANK MENEJMENTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403447>

**Sharipova Mushtariy Obloyorovna**  
*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya  
akademiyasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklarida zamonaviy bank menejmentini rivojlanirish yo'llari, shuningdek tijorat banklarida zamonaviy bank menejmenti amaliyotlarining zaruriyati va afzalliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** bank, risk, menejmenti, bank menejmenti

Bank mahsulotlari va xizmatlarini sotish – har qanday kredit tashkiloti faoliyatida eng muhim bosqichdir. Hozirgi sharoitda bank biznesini rivojlanishi bank mahsulotlari va xizmatlarini bozorga olib chiqish uchun informasion texnologiyalardan keng foydalanish, eng yangi texnikaviy vositalar va ilg'or bank texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, xizmatlarning jozibadorligini oshiruvchi bank uslublarini izlash bilan bog'liqdir. Bank xizmatlari bozorida yangi kiritilayotgan usullardan foydalanayotganda bank marketingini amalga oshirish davomida bank jarayonlarini takomillashtirishga tayanib va yangi bank texnologiyalaridan foydalangan holda marketing xizmati istiqbolli mijozlarga xizmatlar to'g'risida to'liq hajmda axborot taqdim etish va shu tariqa ushbu xizmatlardan foydalanishga undaydi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarga alohida to'xtalib o'tgan edilar: "Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda. Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlanirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim. Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu

esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi[1]

Menejment – inglizcha so‘z bo‘lib, ingliz tilining Oksford lug‘atida berilgan ta’rifga binoan u boshqaruv hokimiyati va san’ati, resurslarni boshqarish bo‘yicha alohida mohirlik va ma’muriy ko‘nikmalar ma‘nosini ifodalaydi. XX asrning 60-yillarida menejment amerikacha boshqaruv deb tushunilgan, keyinchalik, “ilmiy boshqaruv” deb yuritila boshlangan. AQShda hozirgi zamon boshqaruvi asr boshida vujudga kelgan deb hisoblanadi va Teylor nomi bilan bog‘lanadi. Teylor “boshqaruv – aniq qonun va qoidalarga tayanadigan haqiqiy ilm” deb ta’riflagan.

Bank menejmenti umumiyligi holatda bank faoliyatini strategik va taktik rejallashtirish, tahlil, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, moliyaviy boshqaruv, marketing faoliyatini boshqarish hamda bank operatsiyalarini amalga oshiradigan personalni boshqarish bilan bog‘liq munosabatlarni boshqarishni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bank menejmenti bu pul resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni boshqarish, moliyaviy menejment va bank sohasida band bo‘lgan personalni boshqarishning o‘zaro bir-biriga bog‘liq yig‘indisidir.

Boshqaruv ilmining amerikalik namoyondalari hozirgi davrni “Ilmiy menejment” davri deb ta’riflaydilar.[2]

Bank menejmentining elementlari quyidagilar:

1. Obyekt;
2. Vosita;
3. Huquqiy ta’milot;
4. Tadbirlar;
5. Vositalar.

Bank menejmenti sohasida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borgan amerikalik mutaxassis Piter Rouzning fikricha, qarz oluvchi bir yoki bir necha to‘lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta’miloti qiymatining pasayishi kreditni muammoli aktivlar turkumiga o‘tishini anglatadi. Muammoli aktivlar birdaniga sodir bo‘lmasdan uning elementlari kreditlash jarayonida asta-sekin yuzaga kela

boshlaydi. Muammoli aktivlar doimiy monitoring olib borilmasligi natijasida ham paydo bo‘ladi. Monitoring jarayonida qarzdorning buxgalteriya hisobotlarida moliyaviy kamchiliklar aniqlangandan so‘ng, bank xodimi albatta korxonaga tashrif buyurishi (mijoz ofisiga) kerak. Kreditdan unumli foydalanish joylarda, korxona va tashkilotlarda, qoida bo‘yicha, har chorakda tekshirilishi kerak. Kreditlash jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato bank kredit siyosatining noto‘g‘ri tuzilganligidan dalolat beradi. Muammoli aktiv asosan kredit portfeli tarkibidagi kreditlarning foizlari bilan qaytarishda imtiyozli davrning ko‘p berilishida kuzatilmoxda. Shuningdek kredit monitoringida doimiy nazoratning olib borilmasligi va uning natijasida kredit va unga to‘lanadigan foizlarni vaqtida to‘lanmasligi, oxiroqibatda mijozning kreditorlik yukini oshib ketishi va uni to‘lash bo‘yicha moliyaviy ahvolining yomonlashuvigv olib kelmoqda.[3]

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishslash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari tizimida yangi hajmdagi va yangi shakldagi turli xizmatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Masofadan xizmat ko’rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko‘ra ikki turga bo’lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.[4]

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Bank menejmentining vositalari – bu banklar faoliyati va operatsiyalarini amalga oshirishda foydalaniladigan ma’lum tartib qoida va me’yorlar majmuasidir. Bank menejmentining vositalari umumbank faoliyati va aniq bir operatsiya yoki xizmatga tegishli vositalarga bo‘linadi. Umumbank faoliyatiga tegishli vositalar yoki me’yorlar majmuasi bank ustavidir. Chunki bankning ustavida bank amalga

oshirishi mumkin bo‘lgan xizmatlar, operatsiyalar va boshqa yo‘nalishlar o‘z aksini topadi. Bank menejmentini amalga oshirish tadbirlari.

Bank faoliyatini samarali boshqarish jarayonida bank menejmenti vositalarini ma’lum ketma-ketlik asosida amalga oshirish boshqaruva tadbiri hisoblanadi. Masalan, mijozlar talabini o‘rganish va bankning holatidan kelib chiqib ularga xizmatlar ko‘rsatish. Boshqaruva tadbirlari aynan bank ichki siyosatida keltirilgan tartiblarni bajarishning natijasidir. Bu orqali, tijorat banklari oldiga qo‘yilgan maqsad va bankni rivojlantirish masalalarini hal qilishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” gi qonun, 30-modda. <https://lex.uz/acts/-4590452>
2. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023 yil 1 dekabrdagi byulleteni.
4. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 222 b.
5. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
6. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education, 3 (5), 1646-1654.
7. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023
8. I. T. Jumaniyazov 2021. The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 25, 2 (Mar. 2021), 109–116.
9. Jumaniyozov, I. "ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS." International Finance and Accounting 2020.5 (2020): 1.
10. I. T. Jumaniyazov, . “Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds”. The American Journal of Management and Economics Innovations, vol. 3, no. 05, May 2021, pp. 30-37,